

## **AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YO'LOVCHI TASHISH XIZMATINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI**

**S.A.Yuldasheva**

**M.N.Ravshanov**

**Sh.A.Isroilov**

**Toshkent davlat transport universiteti**

### **ANNOTATSIYA**

*Avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatini tashkil etish haqida tadqiqot olib borish mobaynida yo'lovchi avtomobil transporti (YAT) sohasida xorijda amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan holatlar ko'rib chiqilgan, tahlil qilingan, xorij tajribasidan foydalanib tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Yo'lovchi avtomobil transporti, mablag', Yevropa Ittifoqi*

### **АННОТАЦИЯ**

*В ходе исследований по организации пассажирских перевозок на автомобильном транспорте были рассмотрены, проанализированы кейсы, реализованные и реализуемые за рубежом в сфере пассажирских автомобильных перевозок (ЯАТ), и разработаны рекомендации с использованием зарубежного опыта.*

**Ключевые слова:** *Легковой автомобильный транспорт, фонды, Европейский союз.*

### **KIRISH**

Yo'lovchi avtomobil transporti (YAT) faoliyati bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish jarayonida bu masalalarning xorij mamlakatlarda qay darajada dolzarbligi, hamda ularni hal etish yo'lidagi mavjud tajribalarning tahlili ushbu bitiruv malakaviy ishi tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib o'ta muhimdir. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda yo'lovchi avtomobil transportiga baho mexanizmi ta'sir etuvchi an'anaviy ob'yekt deb qaralmaydi. Odatda u yoki bu yo'lovchi avtomobil transporti firmalari biror Shahar yoki hududda tanho o'zlari faoliyat ko'rsatsada, kira haqi (tarif) davlat tomonidan belgilanadi. Shuning uchun yo'lovchi avtomobil transporti firmalari ko'rgan ziyonni mablag' bilan ta'minlashda davlat ko'maklashadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ayrim mamlakatlarda YAT ziyonini kimlar (davlat, hudud, yoki mahalliy hokimiyat) qancha hissada mablag' bilan ta'minlashi qonun bilan belgilanib qo'yilgan. Bu hissa darajasi YAT ni ishlatish ahamiyatiga (umumdavlat, hudud yoki

mahalliy) qarab o'zgarib turadi. Masalan, Italiyada 1982 yilda milliy transport jamg'armasi tuzildi. Bu jamg'armaning asosiy maqsadi - YAT firmalarining bir me'yorda ishlashlari uchun ularni kredit bilan ta'minlashdan iborat. YAT ning ziyonini mablag' bilan ta'minlashda davlatning roli o'sib bormoqda. Avtomobil Vazirligi har uch yilda YAT foydalanish xarajatlarining belgilangan tarif bo'yicha tushgan tushumdan qoplanishi lozim bo'lgan foizini o'zgartirib turadi. Bu foiz Italiya shaharlarida 27%dan (Neapol) – 34%ini (Rim) tashkil etadi.

Germaniya YAT ziyonini mablag' bilan ta'minlashda davlat aralashuvining o'ziga xos xususiyati bor. YATda tashilgan yo'lovchilardan tushgan tushum o'z xarajatlarining 50% ni qoplaydi. Biroq davlat qonunlarida YAT ziyonini mablag' qoplashda Federal hukumatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi ko'rsatilmagan bo'lsada, aholini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida tarifni amaldagidan past belgilanganligi asoslab berilsa, qonun bo'yicha oldindan kompensatsiya (tovon) tayinlanadi. Shuningdek, amaldagi qonunlar majmuasiga ko'ra nogironlar va ayrim ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar YATdan bepul foydalanish huquqiga ega. Davlat tomonidan berilgan bu imtiyozlar ziyonni qoplashda hukumat yo'lovchi avtomobil transporti firmalariga belgilangan foiz hajmida tovon to'laydi. Bu foiz hajmi yo'lovchi avtomobil transportining ahamiyati va geografik tutgan o'rniga qarab har yili o'zgarib turadi. Ziyonning qolgan qismini transport korxonalarining o'zlari qoplashi lozim. Biroq, YAT korxonalarini mamlakatdagi ayrim soliqlardan imtiyozli ravishda foydalanadi, shuning bilan birga ular ziyonning ma'lum foizni mahalliy korxonalar mablag' bilan qoplashadi.

Irlandiyadagi "Divlin Vaz" kompaniyasi 1,2 mln aholi yashaydigan shaharga xizmat ko'rsatadi. Tashish tariflaridan tushadigan tushum foydalanish xarajatlarining 85% ni qoplaydi. Kompaniyaning qolgan ziyoni esa rasmiy tarzda ajratiladigan davlat mablag'lari bilan qoplanadi. Davlat yo'lovchi avtomobil transporti korxonalarining xarajatlari ustidan qattiq nazorat olib boradi, hamda ulardan qo'yilgan vazifalarning bajarilishini talab qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining yo'lovchi avtomobil transporti ziyonini mablag' bilan ta'minlash milliy muammo bo'lib qolmoqda. Yo'lovchilar tashishdan tushadigan tushum YATning foydalanish xarajatlarini qoplamaydi. Shuning uchun u mahalliy, shtat va federal hokimiyatlar tomonidan ajratiladigan dotatsiyaga tayanib faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim shtatlarda YAT ziyonini mablag' bilan qoplashning qo'yidagi ko'rinishlaridan foydalanilmoqda.

- a) 100 mingdan ortiq aholi yashaydigan shaharlarda YAT firmalari

xarajatlarining 40% ni o'zlari qolgan 60% ni esa shtat hokimiyati tomonidan ajratiladigan mablag' yordamida qoplanadi, agar YAT firmalari o'z xarajatlarining 40% dan kam qismining mablag' bilan qoplasa, unda shtat hokimiyati tomonidan ajratiladigan yordam  $30\% + 0,75 \times (100 \times \text{xarajatning qoplanish darajasi})\%$  ko'rinishida bo'ladi;

b) 100 mingdan kam aholi yashaydigan shaharlarda YAT firmalari o'z xarajatlarining 365 dan ortiqrog'ini o'zlari, 64% ni esa shtatlar tomonidan ajratiladigan mablag' hisobidan qoplanishi ko'zga tutilgan. Xuddi shuningdek firmalar o'z xarajatlarinig 40% dan kam qismini qoplasalar unda mablag' bilan ta'minlashda shtat hokimiyatining salmog'I quyidagi ko'rinishda bo'ladi  $37\% \times 0,75 (100 \times \text{xarajatning qoplanish darajasi})$ .

Shveysariyada yo'lovchi avtomobil transporti korxonalarining ziyonini 1985-yilda qabul qilingan jamoat transporti qonun bo'yicha konfederatsiya va kontona hokimiyatlari birlashib mablag' bilan ta'minlamoqdalar. Shuni ta'kidlash lozimki, bu davlatda aholiga transport xizmati sifatini oshirishga katta e'tibor bilan qaraladi. Bu yo'lovchi avtomobil transporti to'g'risidagi federal qonunning II chi bandida aniq belgilangan, ya'ni "konfederatsiya va kontona hokimiyatlari aholiga transport xizmati ko'rsatish sifatini va madaniyatini oshirish, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy shart-sharoitni yaxshilash maqsadida imtiyozli tarif belgilashni talab qilish huquqiga egadir. Transport korxonalari ziyonini qoplash esa mahalliy hokimiyat zimmasiga yuklatilgan".

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi (EI) transport siyosatiga ham avtomobil-yo'l majmuasida resurslardan oqilona foydalanish maqsadida tarmoqda raqobatdoshlikni oshirish va takomillashtirish yo'nalishi o'rin olgan.

### *1-jadval*

Yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlaridan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlarning o'ziga xos xususiyatlari

<b>Davlat nomi</b>	<b>O'ziga xos xususiyati</b>
Italiya	1982-yilda milliy transport jamg'armasi tuzildi. Bu jamg'armaning asosiy maqsadi – yo'lovchi avtomobil transporti (YAT) firmalariningbir me'yorda ishlashlari uchun ularni kredit bilan ta'minlashdan iborat. Avtomobil Vazirligi har uch yilda YAT foydalanish xarajatlarining belgilangan tarif bo'yicha tushgan tushumdan qoplanishi lozim bo'lgan foizini o'zgartirib turadi. Bu foiz Italiya shaharlaridan 27% dan (Neapol) – 34%ini (Rim) tashkil etadi.
Germaniya	Amaldagi mamlakat qonunlar majmuasiga ko'ra nogironlar va ayrim ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar YATdan bepul foydalanish huquqiga

	ega. Davlat tomonidan berilgan bu imtiyozlar ziyonni qoplashda hukumat YAT firmalariga belgilangan foiz hajmida tovon to'laydi.
Irlandiya	“Divlin Vaz” kompaniyasi 1,2 mln aholi yashaydigan shaharga xiamt ko'rsatadi. Tashish tariflaridan tushadigan tushum foydalanish xarajatlarining 85% ni qoplaydi. Kompaniyaning qolgan ziyoni esa rasmiy tarzda ajratiladigan davlat mablag'lari bilan qoplanadi.
AQSH	Ayrim shtatlarda YAT ziyonini mablag' bilan qoplashning quyidagi ko'rinishlaridan foydalanilmoqda: 1. 100 mingdan ortiq aholi yashaydigan shaharlarda YAT firmalari xarajatlarning 40% ni o'zlari qolgan 60% ni esa shtat hokimiyati tomonidan ajratiladigan mablag' yordamida qoplanadi; 2. 100 mingdan kam aholi yashaydigan shaharlarda YAT firmalari o'z xarajatlarining 36% dan ortiqrog'ini o'zlari, 64% ni esa shtatlar tomonidan ajratiladigan mablag' hisobidan qoplaishi ko'zda tutilgan.
Yaponiya	Mamlakat avtomobil yo'llari tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar jami xarajatlarning 60% foizdan ortig'ini tashkil qilishdir. Hozirgi kunda avtomagistrallar uzunligi 14 ming kilometr ga yaqin bo'lib, Shahar avtobus liniyalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo'nalish o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- yo'llarning sifatini oshirish va rivojlantirish;
- avtotransport tizimini takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlarni, jumladan, logistika va boshqaruv sohalarini takomillashtirishni amalga oshirish;
- yagona chegaraviy va ijtimoiy me'yorlarni joriy etish (haydovchilarning mehnatini va dam olishini to'g'ri tashkil etish, haydovchilarni tayyorlashning umumiy dasturini tatbiq qilish);
- nazorat va jarima tizimlarini unifikatsiyalash (bir xillashtirish) va h.k.

## **XULOSA**

Yuqorida nomlari sanam o'tilgan davlatlarning yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlaridan foydalanish bo'yicha tajribalarini o'rganish mobaynida ularning o'ziga xos xususiyatlariga ham to'xtalib o'tish joizdir. Mazkur o'ziga xos xususiyatlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Yaponiyada esa yo'l tarmog'ini kengaytirish va modernizatsiya qilish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni 1990-yillargacha bir kvadrat kilometr ga to'g'ri keluvchi yo'l uzunligining Yaponiyada qisqaligi bilan izohlash mumkin. O'sha davrda Yaponiyadagi avtomagistrallar uzunligi 4368 kilometrni tashkil etardi. Taqqoslash uchun ushbu ko'rsatkich AQSHda 80ming kilometr dan ko'proq,

Germaniyada 8ming kilometrdam ko'proq, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniyada 6 ming kilometrdan ko'proqni tashkil qilardi. Keyinchalik esa, so'nggi o'n yillikda, avtomobil yo'llari tarmog'ining uzunligi qariyb ikki baravarga oshdi. Buning sababi Yaponida avtomobil yo'llari tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar jami xarajatlarining 60 foizdan ortig'ini tashkil qilishdir. Hozirgi kunda avtomagistrallar uzunligi 14 ming kilometrga yaqin bo'lib, Shahar avtobus liniyalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

## REFERENCES

1. Arislanovna, Y., &Bakhtiyorvich, G. B. (2021). Marketing And Information Support In Public Sector. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(1), 940-947.
2. Arislanovna, Y. S., &Bakhtiyorvich, G. B. (2021). Using The Experience Of Developed Countries In Developing A Consortium Between Higher Education Institutions And Production. *EuropeanJournalofMolecularandClinicalMedicine*, 8(1), 819-826.
3. G'Iyosidinov, B. B. O. G. (2022). SHAHARLARDA YO 'LOVCHILARNI JAMOAT TRANSPORTI XIZMATIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 177-188.
4. Ogli, G. B. B., &Buribayevich, E. O. (2022). Development of Logistics Processes in Transport Enterprises. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(3), 138-142.
5. Юлдашева, С. А., &Бўриходжаева, М. С. (2022, September). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 1, pp. 87-91).
6. Abdurakhmanov, O., Khashimova, N., &Yuldasheva, S. (2022, June). Improvement of mechanisms for generation of investment potential in order to ensure sustainable economic growth in Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030006). AIP Publishing LLC.
7. Yuldasheva, S. A., &Malenkikh, D. A. (2018). Unctad methodology in globalization of the direct investment market. *Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой*

---

*промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики, 1, 149-154.*

8. Arislanovna, Y. S., & Nematjanovna, K. M. (2021). Specifics Of Corporate Governance In Road Transport. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 8027-8030.

9. Mukhitdinova, K., & Yuldasheva, S. DEVELOPMENT OF TRANSPORT AND LOGISTICS SERVICES MARKET.

10. Бобур Бахтиёрович Гиёсидинов, Боходир Қорабоевич Қорабаев, & Умархўжа Рашидхўжа Ўғли Қурбонхўжаев (2022). СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ГРУЗОПЕРЕВОЗОК. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 336-340.